

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XALQARO TA'LIM DASTURLARI ORQALI KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Mustaqil izlanuvchi

Matrazov Kuranmurat Salayevich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'limda kadrlar tayyorlash raqobatbardoshligini oshirishning ayrim dolzarb masalalari va ularning o'ziga xosligi tahlil qilingan. maqola yakunida muallifning shaxsiy qarash va xxulosalari ham keltirilib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *globalashuv, ta'lim xizmatlari, politexnik ta'lim*

KIRISH

Kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib, kasbiy ta'lim tashkilotlari turlarini maqbullashtirish hamda kasbiy ta'limning barcha darajalari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona ko'p tarmoqli o'quv muassasalari tizimini joriy qilish, kasbiy ta'lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta'minlash hamda ularning iqtisodiyot tarmoqlari talablariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyatini kengaytirish, kasbiy ta'lim sohasida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish, o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash jarayonlariga manfaatdor vazirlik va idoralarni keng jalb qilish, ularning ta'lim tashkilotlari bilan hamkorligini kuchaytirish, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish, o'qitish yakuni bo'yicha beriladigan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning xorijiy davlatlarda tan olinishini ta'minlash chuningdek kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ko'nikma va kompetentsiyalarini baholash tizimini tubdan yangilash, ushbu jarayonda ish beruvchilar vakillari faol ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 50-moddasida belgilanganidek ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi, davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlanishini, umumiy o'rta ta'lim majburiylikini ta'minlash maqsadida boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash umumiy o'rta ta'lim tashkilotining 9-sinfini tamomlagan o'quvchilar uchun — davlat granti asosida, kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan boshqa talabgorlar uchun — to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi va o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash davlat granti va to'lov-kontrakt asosida tashkil etildi.

Turli darajadagi kasbiy ta'lim dasturlarining o'zaro muvofiqligi va uzviyligi ta'minlanadi hamda ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish muddatlari o'quvchi tomonidan oldin o'zlashtirilgan modullardan kelib chiqib belgilanadi. O'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlarining bitiruvchilariga o'zlashtirgan modullari, to'plagan kreditlari va oliy ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan ballar o'rtacha qiymatidan (GPA) kelib chiqib,

bakalavriatning tegishli bosqichidan o'qishni davom ettirishga ruxsat etiladi.

Jahon miqyosida globallashtirish va integratsiyalashuv jarayoni ro'y bermoqda. Bu esa, o'z navbatida, barcha sohalarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, har tomonlama rivojlanish imkonini beradi. Shunday pallada xorijiy tillarning o'rni yuqori ahamiyat kasb etadi. Bu chet tili ni bilish, fonetik, leksik, grammatik jihatdan to'g'ri muloqot qilishnigina anglatib qolmay, balki xorij xalqining urf-odatlarini, an'anayu marosimlarini, geografiyasi, tashqi va ichki siyosati, tarixi kabilarni o'rgatish vazifalarini ham qamrab oladi.

Bugungi kunda xorijiy tili ni bilish o'ta muhim ahamiyat kasb etgani bois, tili o'qitish tizimini ham isloh etish, dars jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ilg'or interfaol usullarni qo'llash dolzarb masalalardan biridir. Prezidentimiz Murojaatnomasida Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlash va chet tili ta'limini rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos yetuk mutaxassis etib tayyorlash asosiy vazifamiz ekani alohida ta'kidlandi.

Jumladan, davlatimiz rahbarining "Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarni puxta o'zlashtirib, kompyuterda ishlashni o'rganib chiqishi zarur" yoki "Hozirgi ochiqlik siyosati, chet el investitsiyalari va yangi korxonalarining ortib borayotgani yoshlarimizni zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni o'rganishga undamoqda. Shu bois, maktablarga yuqori malakali xorijiy o'qituvchilarni olib kelishga majbur bo'lyapmiz", degan so'zlari xorijiy tillarni o'qitishning ahamiyatini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Shuningdek, dual ta'lim tizimi orqali o'quvchi o'quv muassasasida nazariy bilimlarni, ish joyidagi tashkilotda amaliy ko'nikmalarni oladigan mashg'ulot turi. Dual o'qitish modeli professional va oliy o'quv yurtlarida qo'llaniladi va mutaxassislar bilan qiziqqan tijorat tashkilotlari va hukumat idoralari tomonidan birgalikda moliyalashtiriladi. Dual ta'lim zamonaviy professional ta'limning ta'lim standartlari asosida kompetensiyaviy yondashuvining asosiy tamoyillariga (nazariya va amaliyotning birligi, o'quv jarayonida fanlararo kompleks yondashuv, ko'nikma va bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llashga e'tibor) to'liq javob beradi. O'quv jarayonini tashkil qilishdagi o'zgarishlar (sinfidagi darslar kamayadi, ishlab chiqarish amaliyoti hajmi o'quv dasturining 60-70 foizigacha ko'payadi. Ishlab chiqarish amaliyoti individual yondashuvga asoslangan va real ishlab chiqarish sharoitlariga imkon qadar yaqinroq bo'ladi. Korxonadan dual moliyalashtirish choralari ko'riladi. Ishlab chiqarishda mentorlik institutini rivojlantiriladi. Ushbu kasbiy ta'limi shakli ijtimoiy sheriklikning mahsuli sifatida paydo bo'lib, u mehnat bozori talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasa va ish beruvchilar o'rtasidagi yaqin hamkorlik mexanizmidir. Dual ta'lim - bu professional ta'limda nazariy qism ta'lim muassasasi (o'qish vaqtining 30- 40%) bazasida, ishlab chiqarish korxonasida, ish joyidagi mashg'ulotning amaliy qismi (o'quv vaqtining 60-70%) olib boriladi. Dual ta'limning asosiy konsepsiyasi o'quv va ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish orqali kadrlar tayyorlashda amaliy yo'nalishni kuchaytirishga asoslangan.

O'quv dasturlarini ishlab chiqish amaldagi ta'lim standartlari talablarini inobatga olgan holda va hududiy ish beruvchilarning talablarini inobatga olgan holda tanlangan ta'lim mutaxassisliklari asosida amalga sohiriladi. Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun uslubiy, kadrlar va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, masalan, talabalar uchun darslarni rejalashtirish va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimining rivoji va xalqaro ta'lim dasturlarining ahamiyatini ta'kidlash. Xalqaro ta'lim dasturlari orqali kasbiy ta'limda kadrlar tayyorlashning zamonaviy yo'nalishlarini tahlil qilish. Kasbiy ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.

Xalqaro ta'lim dasturlarining asosiy mazmunlari va ularning politexnik ta'limga mosligi. Shuningdek, dasturlarning tashkil etilishi, modullar, kredit tizimi va baholash usullari ham muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayonidagi xalqaro standartlar, metodikalar va o'qitish usullari orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Dasturni tatbiq etish jarayonida politexnikumlarda joriy etilishi, muammolar va ularni hal qilish yo'llarini izlash lozim bo'ladi. Dasturlarning samaradorligini baholash, o'quvchilarning bilim darajasi, ishga joylashish ko'rsatkichlari va ish beruvchilarning fikrlari o'rganiladi.

Xalqaro ta'lim dasturlarining kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari, innovatsiyalar va yangi texnologiyalar orqali O'zbekistonda xalqaro ta'lim dasturlarining kelajakdagi istiqbollari va ularning milliy ta'lim tizimiga integratsiyasi hamda politexnikumlarda xalqaro ta'lim dasturlarini yanada samarali joriy etish amalga oshiriladi.

XULOSA

Asosiy maqsad talabalarning kasbiy omilkorligini oshirishda xorijiy til ko'nikmalarini shakllantirish, xalqaro miqyosda raqobatlasha oladigan huquqshunos kadrlar tayyorlashdir. 2020-2021-o'quv yilidan universitet Yevropa kredit tizimi asosida faoliyat yuritar ekan, kafedra jamoasi dunyodagi yetakchi mingtalikka kirgan universitetlar bilan muntazam hamkorlik qilib, xalqaro konferensiyalar, vebinarlar o'tkazdi, xorijiy til mutaxassislari bilan tajriba almashdi.

Yoshlarimiz yurtimizni jahonning eng ilg'or, rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqishi, zamonaviy fan-texnika yutuqlarini mukammal o'rganib, xalqaro darajadagi yuksak kadrlar bo'lib yetishishi uchun xorijiy tillarni puxta bilishi muhim. Shundagina Yangi O'zbekiston jahonning ko'zga ko'ringan mamlakatlari qatoridan munosib o'rin olishiga, kelajagimizning buyuk bo'lishiga mustahkam zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/>
2. <https://inlibrary.uz/>
3. www.gazeta.uz
4. <https://yuz.uz/>
5. www.zangiotatumanpolitexnikumi.uz